KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 52 (582) 2025-YIL, 8-NOYABR



MARHAMAT TUMANI PROKURORI OYBEK QAYUMOVNING AHOLIGA MUROJAATI

Assalomu alaykum, aziz marhamatliklar va tumanimiz mehmonlari!

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan joriy yilda mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu munosabat bilan 2025-yilda mahallalarda sodir etilgan oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning obyektiv va subyektiv sabablarini aniqlanib, mahalla jamoatchiligi bilan birgalikda muhokama qilinib, faoliyatida kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul shaxslarga intizomiy choralar ko'rildi.

Aholi gavjum bo'lgan hududlar, maktablar, mahallarning kirish va chiqish yo'llariga zamonaviy turdagi videokuzatuv moslamalari o'rnatildi, bozor, savdo do'konlari va yashash xonadonlari qo'riqlovga olindi, ko'p qavatli uylarning kirish-chiqish eshiklari yanada xavfsiz qilib ta'mirlandi va bu boradagi ishlar davom ettirilmoqda.

Shuningdek, probatsiya va profilaktika hisobida turuvchi shaxslar, muqaddam jinoyat sodir etgan va jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar, yoshlar hamda ayollar bilan uchrashuvlar o'tkazilib, ularning muammolari bosqichma-bosqich bartaraf etib kelinmoqda.

Shunday bo'lsa-da, joriy yilning o'tgan davrida tumanimiz hududida qasddan badanga tan jarohati yetkazish hamda o'g'irlik jinoyatlari ortib ketgan.

Bu esa nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organ va tashkilotlar balki barcha vatanparvar fuqarolarimizni befarq qoldirmasligi lozim.

Aholi o'rtasida ommaviy tarzda "tig'" tadbirlari o'tkazilib kelinayotganligi tumanimizda sovuq qurollar bilan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olishda o'z samarasini bermoqda.

Bundan tashqari tashkilotlar, tadbirkorlar, o'zini o'zi boshqarish organlari hamda fuqarolar bilan o'zlariga tegishli mulklar hamda xonadonlarni tuman ichki ishlar bo'limi qo'riqloviga topshirishlari, videokuzatuv moslamalari o'rnatishlari yuzasidan targ'ibot va tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Shunday bo'lsa-da ayrim shaxslar tomonidan o'zining va o'zganing hayoti, sog'ligi, mol-mulklariga, qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish holatlari kuzatilmoqda, buning oqibatida qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan tegishli choralari ko'rilmoqda.

Shunday ekan, biz Marhamat tumani fuqarolari birgalikda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan samarali hamkorlikda ish olib borishimiz, jamiyatimiz va mahallalarimizni jinoyatdan holi hududga aylantirishimiz, bu borada shaxsiy mas'uliyatimizni namoyon etgan holda bir-birimizga o'rnak bo'lishimiz lozim.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

O'QITUVCHILAR KORRUPSIYA MAVZUSIDAGI MAQOLALARNI QIZIQISH BILAN O'QIMOQDA

Gazetamiz tahririyati tomonidan Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" nomli loyihasi doirasida belgilangan "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" sahifasi chop etilgan va "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" mavzusidagi bukletlar ta'lim muassasalariga yetkazib berilmoqda.

Quyida yetkazib berilgan gazetamizni joylarda qanday foydalanmoqda va gazetxonlarni chop etilgan maqolalar fikri bitilgan xabarnomalar kelib tushmoqda.



Tahririyatga kelgan navbatdagi xabar Andijon shahridagi 5-son politexnikumi kutubxona mudiri Nazira Sobirovadan "O'qituvchilar korrupsiya mavzusidagi maqolalarni qiziqish bilan o'qimoqda" sarlavhasi bilan keldi.

Biz gazetani olgach, alohida korrupsiya mavzusida taxlam qilib qo'ydik. Kutubxonaga kirgan o'qituvchi va o'quvchilar korrupsiya mavzusidagi maqolalarni katta qiziqish bilan o'qimoqda.

Shuningdek politexnikumimizda mazkur mavzuda yig'ilish bo'lib o'tdi. Yig'ilishda so'zga chiqqan direktorimiz Nilufarxon Nasirdinova shunday dedi:

-Korrupsiya — bu jamiyatning har qanday sohasida uchrashi mumkin bo'lgan jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy illatdir. U nafaqat qonunbuzarlik, balki adolat, tenglik, insof va yuksalishning dushmani hamdir. Poraxo'rlik kuchaygan jamiyatlarda ishonch yo'qoladi.

Korrupsiya nima?

Korrupsiya (lot. corruptio — buzish, yo'ldan ozdirish) — davlat, jamoatchilik yoki xususiy sohalardagi ishonchli shaxsning o'z manfaatlari yo'lida berilgan vakolatlarni suiiste'mol qilishi demakdir. Bu jumladan: pora berish va olish, tanish-bilishchilik, xizmat vakolatini shaxsiy maqsadda ishlatish, tenderlarda shaffoflikni buzish, soliqlardan qochish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Albatta jamiyatni ziyoli qatlamidan bo'lgan, biz o'qituvchilar bu illatga kurashmog'imiz darkor, - deya barchani korrupsiyaga murosasiz bo'lishga chaqirdi.



YOSH HUQUQSHUNOSLAR ISHTIROKIDA DAVRA SUHBATI O'TKAZILDI



"Adolat mezoni" gazetasi tahririyati Andijon Yuridik texnikumi bilan hamkorlikda "Biz Yoshlar Korrupsiyaga qarshimiz" mavzusida davra suhbati tashkil qilindi.

Davra suhbatida "Adolat mezoni" gazetasi muharriri Maxpura Artiqova, Yuridik texnikumi kutubxona mudiri Muqaddasxon To'xtamatova va texnikum o'qituvchi hamda o'quvchilari ishtirok etdi.

Davra suhbati davomida korrupsiyaga kurashda yoshlar bilimli, salohiyatli bo'lishi tushuntirildi. Yosh huquqshunoslar korrupsiya holatlarda qanday jazo choralari qo'llanishi haqida ma'lumotlar berishdi.

O'quvchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Dilbar ABDUMAJIDOVA,
"Adolat mezoni" gazetasi muxbiri.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

XALQNING DAVLATGA VA QONUNLARGA ISHONCHIGA PUTUR YETKAZADIGAN ILLAT



O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan, masalan, O‘zbekiston 2008-yil 7-iyulda BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasiga, 2010-yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga qo‘shilgan. Shuningdek, Oliy Majlis tomonidan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimi 2011-yil 13-dekabrda ratifikatsiya qilingan. O‘zbekistonda 2017-yilning 4-yanvaridan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonun kuchga kirdi. Qonunga ko‘ra, respublikada Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiradi.

Shuningdek, bu illatni yo‘q qilish maqsadida qonunchilikda ham bir qator jazolar belgilangan. Chunonchi: pora olganlik uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda 5-yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Ushbu jinoyat og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganda 10-yildan 15-yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi.

Pora berish jinoyati uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda jarimadan 5-yildan 10-yilgacha ozodlikdan mahrum qilishgacha jazo tayinlanadi.

Pora olish-berishda vositachilik qilganlik uchun esa eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda jarimadan 5-yildan 8-yilgacha ozodlikdan mahrum qilishgacha jazo belgilangan. Vositachilik qilgan shaxs jinoiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Taklif o‘rnida shuni aytish mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurash borasida Niderlandiya tajribasini qo‘llab, mamlakatda OAVga poraxo‘rlik holati bilan bog‘liq voqealarni keng yoritishga va surishtiruvlar o‘tkazish borasida qo‘shimcha vakolatlar berilishi ijobiy natijalarga sabab bo‘ladi.

Dilbar ABDUMJIDOVA,
“Adolat mezoni” gazetasi muxbiri.

KREDIT OLIB BERISHNING “NARXI” QIMMATGA TUSHDI

Farg‘ona shahridan Andijonga yo‘lga chiqqan avtomashinadagi yo‘lovchi ayollar o‘zaro suhbatlashib kelayotgan edi. O‘zini Barchinoy deb tanishtirgan ayol bankda stajyor bo‘lib ishlashini aytdi. Shunda suhbatdoshi bo‘lgan Nodira:

Opa, tikuvchilik bilan



shug‘ullanmoqchi edim. Mablag‘dan sal qiynalyapman. Shunga bankdan kredit olsammi deb turgandim.

-Ha, bemalol bo‘ladi. Hozir tadbirkorlikka deb imtiyozli kreditlar chiqarilyapti.

-Menga yordam berasizmi?

-Ha.

Mana shu suhbatdan keyin ular o‘zaro telefon raqamlarini almashdi. Nodira uyiga borib Barchinoy haqida qarindoshi Dilraboga ham aytdi. Oradan bir-ikki kun o‘tgach, ular Barchinoyga telefon qildi va Andijon shahridagi Yangi bozor hududida uchrashishga kelishdi.

Dastlabki uchrashuvda Barchinoyga Dilrabo:

-Menga ham kredit olishda yordam berasizmi? – dedi.

-Ha.

-Kreditga hujjatlarni tayyorlanglar. Sizlar aytayotgan bank kredit foizi yuqori. Shuning uchun foizi pastroq bo‘lgan bankdan olib beraman. Buning uchun 30 million so‘mga 1 milliondan xizmat haqi berasizlar.

-Bo‘ldi, biz rozimiz.

Nodira va Dilrabo kredit hujjatlarini tayyorlab, Barchinoyga telefon qildi. Ular Andijon shahridagi kafelardan birida uchrashishdi va kelishilgan summani berdi. Kredit hujjatlarini esa Barchinoy aytgan bankka olib borib topshirishdi.

Hadeganda kredit chiqmadi. Nodira Barchinoy telefon qilib kredit qachon chiqishini so‘radi.

-Yana 1 million bersanglar tezlashar edi, - dedi Barchinoy.

-Mayli, olib borib beraman. Qayerda uchrashamiz.

-Eski shaharda.

Barchinoyni navbatdagi so‘ragan pulini ham berishdi. Lekin kreditdan esa darak bo‘lmadi.

Navbatdagi qo‘ng‘iroqdan so‘ng Barchinoy tezlatib beradigan odam topganligini, faqat u 200 dollar so‘rayotganligini aytdi.

Nodira bu pulni tayyor qilgach, qo‘ng‘iroq qilishini bildirdi.

Barchinoy Nodirani bu galgi qo‘ng‘irog‘ini ko‘rgach, sal yengil tortdi. Chunki bu muammodan qutilaman, deb o‘ylagan edi.

Ha, bu gal Barchinoy butkul qutildi. U Nodiradan pulni olgach, huquq-tartibot organlari tomonidan qo‘lga olindi. Olib borilgan surishtiruv-tergov ishlaridan so‘ng sudda ko‘rib chiqildi.

Barchinoy Aliyevaga sud tomonidan jazo tayinlashda Jinoyat Kodeksining 55-moddasiga asosan, uni aybiga to‘la iqror va chin ko‘ngildan pushaymonligini, oilaviy sharoitini, onasi og‘ir kasalligini, oilada yagona boquvchi ekanligini, yetkazilgan zararni to‘liq qoplaganligini, jabrlanuvchilarni unga nisbatan da’vosi yo‘qligini, yashash joyidan ijobiy tavsiflanayotganligini inobatga olindi.

Unga nisbatan qonun sanksiyasi doirasida ilgari sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan jazoning o‘talmagan qismini qo‘shib uzil-kesil o‘tash uchun har oylik ish haqining 20 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish sharti bilan 3-yilga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlandi.

Voxidjon TOJIDDINOV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.

PORA EVAZIGA OG‘DIRISH HAMDA JAMIYAT TARAQQIYOTI VA RIVOJIGA QO‘YILGAN TO‘SIQ

Korrupsiya albatta bugun paydo bo‘lgan illat emas, u qadimdan buyon mavjud bo‘lib kelmoqda. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel aytganiday: “Har qanday davlat tizimida-qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerak-ki unda mansabdor shaxslarning noqonuniy yo‘l bilan boyishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim”.

Korrupsiya hozirgi kunda jahon mamlakatlarida qonun ustuvorligini ta’minlashga, demokratiya, inson huquqlari, hokimiyatga ishonch, davlat boshqaruvi, tenglik va ijtimoiy adolat prinsiplariga, iqtisodiyotda sog‘lom raqobatga jiddiy xavf solmoqda va iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qilmoqda, demokratik va fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va rivojini to‘xtatishga harakat qilmoqda.

Korrupsiya atamasiga O‘zbekiston Yuridik ensiklopediyasida shunday ta’rif berilgan: “korrupsiya – (lot. corruption – aynish, poraga sotilish) – siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi ijtimoiy xavfli hodisa, davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek shu boylik va imtiyozlarni jismoniy va yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi”.

Hozirgi kunda korrupsiya muammosiga jahoning istalgan mamlakatida duch kelish mumkin. Biroq bu hamma joyda ham korrupsiya bir xil degani emas. Korrupsiyaning yuzaga kelish sabablari hamma joyda turlicha bo‘lib, tarixiy davr va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan izchil ishlar olib borilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktyabr kungi Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasiga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi 2008-yil 7-iyul kuni Qonuni qabul qilindi.

2017-yil 3-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi qonunda aniq belgilab qo‘yildi.

Qonunga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; ochiqlik va shaffoflik; tizimlilik; davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi; javobgarlikning muqarrarligi.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iboratligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Hozirda korrupsiya holatiga yo‘l qo‘ygan shaxslar reyestrini tuzish, ularni davlat xizmatiga qabul qilishni cheklash kabi qonunchilikdagi o‘zgarishlar kun tartibida turibdi, albatta bunday choralar davlatimizda korrupsiya holatlariga chek qo‘yish, qonun hujjatlari ustuvorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Maxpura ARTIQOVA,
“Adolat mezoni” gazetasi maxsus muxbiri.

“SUDYALAR FAOLIYATI” SAHIFASI



IQTISODIY SUDLARDA SUN’IY INTELLEKT

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. U tibbiyotda kasallikni aniqlaydi, tijoratda savdo jarayonlarini avtomatlashtiradi, hatto ta’limda ham yordamchi vazifasini bajaradi. Endi esa navbat - sud tizimiga keldi.

Ayniqsa, iqtisodiy sudlarda SIdan foydalanish masalasi bugun dolzarb bo‘lib, u sud ishlarini tezlashtirish, qaror qabul qilishda adolatni kuchaytirish va inson xatolarini kamaytirishga xizmat qilishi kutilmoqda.



Iqtisodiy sud ishlari ko‘pincha yuzlab sahifalardan iborat bo‘lgan hujjatlar - shartnomalar, hisob-fakturalar va dalillar bilan bog‘liq. Sudya ularni qo‘lda o‘qib chiqishi soatlab, ba’zan kunlab vaqt talab qiladi.

Sun’iy intellekt esa bu jarayonni soniyalar ichida bajara oladi. U hujjatlarni tahlil qilib, muhim ma’lumotlarni saralab jadvallar yoki qisqa xulosalar ko‘rinishida taqdim etadi. Shu tariqa sudya asosiy e’tiborni ishning mohiyatiga qaratadi, vaqt tejaladi.

SIning yana bir katta imkoniyati - sud amaliyotini tahlil qilish. Masalan, oldingi yillarda shunga o‘xshash nizolarda qanday qarorlar qabul qilinganini o‘rganib, sudyaga xolis tavsiyalar berishi mumkin.

Tasavvur qiling: tadbirkorlar o‘rtasidagi shartnomaviy nizolar yoki qarzdorlikni undirish bo‘yicha ish ko‘rilayotgan bo‘lsa, SI tizimi bir necha daqiqada shunga o‘xshash yuzlab ishlar tahlilini chiqara oladi. Bu esa sudya uchun katta yordam.

Ayrim davlatlarda SI sud qarorining dastlabki loyihasini tayyorlaydi. Sudya esa uni tekshirib, inson tajribasi va adolat mezonlari asosida tasdiqlaydi.

Bu usul ish jarayonini bir necha barobar tezlashtiradi. Shu bilan birga, sudyaning vazifasi qoladi - adolatni inson qarashi bilan ta’minlash.

O‘zbekiston sud tizimida raqamlashtirish so‘nggi yillarda sezilarli darajada ilgariladi. “E-SUD” tizimi, sud hujjatlarining elektron arxivi va onlayn murojaat imkoniyatlari bunga misol.

Keyingi bosqichda esa sun’iy intellektni joriy etish tabiiy qadam bo‘ladi. Masalan:

Ishlarni avtomatik taqsimlash orqali “inson omili”ni yo‘qotish;

Sud qarorlarini tahlil qilish orqali adolatni kuchaytirish;

Iqtisodiy nizolar bo‘yicha tezkor statistika va prognozlar tayyorlash.

Bu imkoniyatlar sud tizimini yanada ochiq, tezkor va ishonchli qilishga xizmat qiladi.

Ammo, SI foydalanishda ehtimoliy xavflar haqida ham o‘ylash kerak.

Albatta, har qanday texnologiya singari SI ham ehtiyot va mas’uliyat talab etadi.

Xavf sifatida quyidagi omillarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

– algoritmdagi xatolik natijasida noadolat tavsiya chiqishi;

– ba’zi sud ma’lumotlarining maxfiyligi buzilishi.

Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfni bartaraf etish uchun yechim sifatida inson nazoratini saqlab qolish, mahalliy serverlar va kuchli shifrlash tizimlaridan foydalanishni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Sudda sun’iy intellekt “hukm chiqaruvchi” emas, balki “aqlli yordamchi” bo‘lishi kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki sun’iy intellekt sudya yo advokatni almashtirmaydi - u faqat ularning ishini yengillashtiradi. Vaqt tejaydi, xato ehtimolini kamaytiradi, adolat qarorlarini tezroq ta’minlaydi.

Demak, iqtisodiy sudlarda sun’iy intellekt joriy etilishi - bu faqat texnologiya emas, yangi davr sari tashlangan muhim qadamdir.

J.KARABOYEV,
Bo‘ston tumanlararo iqtisodiy sudi raisi.

INTELLEKTUAL MULK HUQUQI HIMOYASINING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Jahonda bugungi kunda intellektual mulk huquqi, jumladan ixtiro, tovar belgilari va tijorat sirlarining ahamiyati ortib bormoqda. Bularsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin jarayonga aylanib bormoqda. Bundan tashqari yuqorida sanab o‘tilgan obyektlarning mamlakat iqtisodiyoti o‘sishiga ham bo‘lgan ta’siri yil sayin ortib bormoqda.

Intellektual mulkni himoya qilishning ahamiyati, mamlakatimizda qonunchilikni takomillashtirish borasida olib borilayotgan o‘zgarishlar aynan intellektual mulk huquqi qonun himoyasida ekanligi to‘g‘risidagi normaning O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida o‘z aksini topishiga sabab bo‘ldi.

Konstitutsiyamizning 53-moddasida har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanganligi va intellektual mulkning qonun bilan muhofaza qilinishi belgilangan.

Ushbu norma mamlakatimizda intellektual mulk himoyasining fundamental asosi hisoblanib, har bir shaxs o‘z aqliy yoki ijodiy faoliyati bo‘lmish intellektual mulk obyektidan foydalanish, huquqlari buzilishi holatlarni bartaraf etish va o‘z aqliy faoliyat natijasini tijoriylashtirish orqali foyda ko‘rishi huquqi qonun bilan kafolatlanganligi his qilib turadi.

Intellektual mulk obyektlari muhofazasini ta’minlash bilan birga ularni samarali himoya qilish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish va amalga oshirish hamda bu yo‘nalishdagi amaliyotni takomillashtirish davr talabidir.

Umuman olganda intellektual mulk bu shaxsning aqliy, ijodiy va ilmiy faoliyati natijasi bo‘lib, ushbu mulkni egasi undan foydalanishda mutlaq huquqlarga ega bo‘ladi. Biroq, jamiyatda shakllangan qarashlar ushbu turdagi mulk egalarining qonuniy huquq va erkinliklarini to‘laqonli amalga oshirishga imkon bermaydi.

Xususan, mualliflik huquqlari, turdosh huquqlar yoki sanoat mulki obyektlari bo‘lmish ixtiro yoki foydali modelga bo‘lgan huquqlarning buzilishi, o‘zga shaxslar tomonidan ushbu intellektual mulk obyektlaridan huquq egalarining ruxsatisiz foydalanishi holatlari keng uchrab turadi.

Garchi intellektual mulk huquqlarini muhofaza va himoya qilish sohasida qonunchilik mavjud bo‘lsa-da, huquq egalarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi kuchli mexanizmni yaratish imkoniyati mavjud emas.

Intellektual mulkning kuchli himoyasi eng avvalo jamiyatda innovatsiya va texnologiyani rivojlantirishga, yangi g‘oyalarni sanoatda qo‘llash orqali yaxshiroq texnik yechimlarga ega bo‘lishga, jamiyat a’zolarining turli ijod namunalaridan bahramand bo‘lishiga imkon yaratadi. Shuningdek, samarali himoya tizimining mavjud bo‘lishi aholi orasida ixtirochilik, ijod bilan shug‘ullanishni rag‘batlantiradi va o‘z aqliy va ijodiy faoliyat natijasidan foyda olish ularni yanada yangi va yaxshiroq sanoat mulki obyektlari va san’at asarlari yaratishiga imkon beradi. Intellektual mulk obyektlaridan foydalangan jamiyat esa o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga tezroq yetadi.

Agarda bugungi kundagi tendensiyaga e’tibor beradigan bo‘lsak har qanday mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarning nomoddiy aktivlari salmog‘i moddiy obyektlardan ko‘ra qiymatliroq va biznes uchun ahamiyatliroq. Shu bois ham ko‘plab yirik kompaniyalar o‘z faoliyatlarini aynan intellektual mulk huquqlarining samarali himoya qilish mexanizmi mavjud bo‘lgan davlatlarda amalga oshirishni va o‘z huquqlarining qonun bilan himoya qilinishini xohlaydilar.

Garchi Bosh qomusimizda intellektual mulkning qonun bilan muhofaza qilinishi belgilangan bo‘lsa-da, bu orqali intellektual mulkka oid huquqbuzarlik holatlari to‘laqonli bartaraf etildi degan xulosa qilish imkonsiz. Konstitutsiyada intellektual mulkning qonun bilan muhofaza qilinishi to‘g‘risidagi normaning kiritilishi ushbu turdagi mulkning ahamiyati, davlat va jamiyat rivojida tutgan o‘rni va qonunchilikda belgilangan normalarni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llash zaruriyatini ko‘rsatib turibdi.

Intellektual mulkning kuchli himoyasini ta’minlash esa birinchi navbatda aholining ushbu mulkka bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirish, moddiy va nomoddiy mulk birdek himoya qilinishi hamda ushbu mulkka bo‘lgan huquqlarning buzilishi javobgarlikni keltirib chiqarishi haqidagi huquqiy madaniyatini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

X.TO‘YCHIYEV,
Bo‘ston tumanlararo iqtisodiy sudi sudyasi.

MEDIATSIYA INSTITUTI TAKOMILLASHTIRILMOQDA

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning muammolarini hal etish maqsadida nizolarni sudgacha hal qilishning yuqori samarali, muqobil zamonaviy yo‘nalishlarini keng joriy etishga e’tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotga xorijiy investorlarni jalb etishda yuzaga keladigan nizolarni sudgacha hal qilishni yoki sud muhokamasining har qanday bosqichida nizolashayotgan taraflar uchun o‘zaro kelishuvga va maqbul yechimni topishga erishishni ta’minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mediatsiya – kelib chiqqan nizoni taraflar o‘zaro maqbul qarorga erishish uchun ixtiyoriy roziligi asosida Mediator ko‘magida hal etish usulidir.

Mediatsiya rivojlangan xorijiy davlatlar huquqiy tizimida nizoni sudgacha olib bormasdan muqobil yo‘l bilan hal qilish uchun keng qo‘llanilib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi va ko‘pgina qonunlarimizga mediatsiya bilan bog‘liq qoidalarning kiritilishi bizning respublikamizda ham nizolarni muqobil yo‘l bilan sudgacha hal etish uchun huquqiy zamin yaratib berdi. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun 2018-yil 3-iyulda qabul qilinib, 2019-yil 1-yanvardan qonuniy kuchga kirgan edi.

20.10.2025-yildagi O‘RQ-1089-son Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga nizolarni muqobil hal qilishda mediatsiya institutini takomillashtirishga



qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Hujjatda qayd etilganidek, xorijiy investorlarni jalb qilish bilan bog‘liq yuzaga keladigan nizolarni sudgacha hal etish yoki sud muhokamasining har qanday bosqichida kelishuv bitimiga erishish va nizolashayotgan tomonlar uchun maqbul qaror qabul qilishni ta’minlaydigan mexanizmlarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Qonunda nizolarni muqobil hal etish mexanizmlaridan biri sifatida mediatsiya tartib-taomilini qo‘llash va mediativ kelishuvlarni amalga oshirishni rag‘batlantiruvchi normalar belgilanmoqda.

Xususan, kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalarga ko‘ra, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi nizolarni samarali va tezkor hal etishni ta’minlash, shuningdek, mediatsiya tartib-taomillarini keng qo‘llashni rag‘batlantirish orqali sudlar ish yuklamasini optimallashtirish nazarda tutilmoqda.

Agar mediativ kelishuv taraflar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilmagan bo‘lsa, uni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi masala mediativ kelishuv tuzgan tarafning arizasiga ko‘ra ko‘rib chiqiladi.

Mediativ kelishuvni majburiy ijro etish uchun ijro varaqasini berish quyidagi hollarda rad etiladi, agar:

mediativ kelishuv qonun hujjatlariga zid bo‘lsa;

bajarilishi lozim bo‘lgan mediativ kelishuv shartlari o‘zgartirilgan yoki bekor qilingan;

mediativ kelishuvda ko‘zda tutilgan majburiyatlar to‘liq bajarildi;

ijro varaqasini berish to‘g‘risidagi ariza mediativ kelishuvni ixtiyoriy ijro etish muddati tugagan kundan olti oy o‘tgach berilgan, sud o‘tkazib yuborilgan muddatni uzrli deb topgan va uni tiklagan hollar bundan mustasno.

Mediator tomonidan mediatsiya to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini va mediatorning kasb etikasi qoidalarini buzish unga nisbatan intizomiy javobgarlik choralari qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi.

"Notariat to‘g‘risida"gi qonun, Fuqarolik protsessual kodeksi, Oila kodeksi va boshqa hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi.

Hujjat Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasida e’lon qilingan va 20.10.2025-yildan kuchga kirdi.

Muxayyoxon TURDIYEVA,
Buloqboshi tuman sudining tergov sudyasi.

QASDDAN BADANGA YENGIL SHIKAST YETKAZISH JINOYATINING IJTIMOIY SALBIY OQIBATLARI

HAR QANDAY DEMOKRATIK JAMIYATDA INSON SHA'NI, QADR-QIMMATI VA JISMONIY DAXLSIZLIGI ENG OLIY QADRIYAT SIFATIDA E'TIROF ETILADI. ASOSIY QONUNNING 26-MODDASIDA: "INSONNING SHA'NI VA QADR-QIMMATI DAXLSIZDIR. HECH NARSA ULARNI KAMSITISH UCHUN ASOS BO'LISHI MUMKIN EMAS. HECH KIM QIYNOQQA SOLINISHI, ZO'RAVONLIKKA, BOSHQA SHAFQATSIZ, G'AYRIINSONIY YOKI INSON QADR-QIMMATINI KAMSITUVCHI MUOMALAGA YOXUD JAZOGA DUCHOR ETILISHI MUMKIN EMAS", — DEGAN HUQUQIY NORMA MUSTAHKAMLAB QO'YILGAN.

Bugun jamiyatimizda ayrim shaxslar tomonidan bu tamoyillarga zid ravishda



boshqa fuqarolarning badani yoki sog'lig'iga qasddan zarar yetkazish holatlari uchrab turadi. Bunday harakatlar — jinoyat qonunchiligi nuqtayi nazaridan og'ir huquqbuzarlik, axloqiy jihatdan esa insonparvarlik tamoyillariga zid hodisa hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 109-moddasi qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatini belgilaydi. Ya'ni, "Sog'liqning qisqa vaqt, ya'ni olti kundan ortiq, ammo yigirma bir kundan ko'p bo'lmagan muddatga yomonlashuviga yoki umumiy mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qotilishiga sabab bo'lgan qasddan badanga engil shikast yetkazish" normasi huquqiy jihatdan insonning jismoniy daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, sog'liqqa yetkazilgan zarar darajasiga qarab javobgarlikni aniq belgilab beradi.

Mazkur jinoyat uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravaridan 50 baravarigacha jarima, ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari, yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum etish jazolari nazarda tutilgan. Shu bilan birga, agar jinoyat diniy ta'assub asosida, bir guruh shaxslar tomonidan, yoki qurol (yoki qurol sifatida foydalanilishi mumkin bo'lgan buyum) vositasida sodir etilgan bo'lsa, bu holat og'irlashtiruvchi omil hisoblanadi va jazo bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum etish shaklida belgilanadi.

Mazkur jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi shundaki, u inson o'rtasidagi o'zaro hurmat va ishonchni yemiradi, jamiyatda zo'ravonlikni "oddiy holat" sifatida qabul qilish kayfiyatini kuchaytiradi. Bu esa huquqiy davlat qurish tamoyillariga zid holatdir. Shu bois, bu jinoyatni oldini olish masalasi faqat jazo choralarini kuchaytirish bilan cheklanmasligi kerak.

Shuningdek, ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan, inson — bu ijtimoiy mavjudot bo'lib, ya'ni u faqat jismoniy mavjudlik orqali emas, balki o'zining ruhiy, ma'naviy, axloqiy va madaniy dunyosi orqali jamiyatning bir qismi sifatida yashaydi. Shu bois, inson tanasi, ruhi va ongining yaxlitligi uning sha'ni va qadr-qimmatining asosi hisoblanadi. Har qanday zo'ravonlik, ayniqsa badanga qasddan zarar yetkazish, bu yaxlitlikni buzadi, insonni nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham tahqirlaydi.

Bugun jamiyatimizda ijtimoiy salbiy oqibatlarning ko'rinishlari quyudagi omillarda yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Masalan, odamlar o'rtasidagi zo'ravonlik, oiladagi zo'ravonlik, mehnat jamoalari orasidagi zoravonlik kabi holatlar jamiyatda huquqiy madaniyatning pasayishi bilan tavsiflanadi. Buning oldini olish uchun esa, jamiyatda, ayniqsa, yoshlar orasida huquqiy-tarbiyaviy targ'ibotlarni tizimli amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "...odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir", deb jamiyatimiz oldiga ma'naviy mas'uliyat yuklaydi.

Xulosa qilib aytganda, badanga qasddan zarar yetkazish — bu oddiy jismoniy harakat emas, balki insoniylik g'oyasiga zid bo'lgan ijtimoiy-axloqiy hodisadir. U jamiyatning ma'naviy asoslarini yemiradi, ishonch va mehr-oqibatni susaytiradi, zo'ravonlikni ijtimoiy norma sifatida qabul qilish xavfini kuchaytiradi. Shuning uchun, bu muammo bilan kurashish faqat huquqiy chora ko'rish bilangina cheklanmasligi kerak. Inson sha'ni va jismoniy daxlsizligiga hurmatni targ'ib etuvchi ma'naviy-ma'rifiy siyosat, oilada va ta'lim tizimida zo'ravonliksiz munosabat madaniyatini shakllantirish, OAV va jamoat tashkilotlari tomonidan insonparvarlik g'oyalarini keng yoyish muhim ahamiyatga ega.

Rahmatullo XAYDAROV,
Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD.

MEROSXŬRLAR DIQQATIGA!

Xonobod shaxri, A.Navoiy MFÝ, Bek kŭchasi, 50-uyda yashab, 2024 yil 17 oktyabr kuni vafot etgan marxum **XAYDAROV ADILJON XXX,**

Xonobod shaxridagi uyda yashab, 2025 yil 19 mart kuni vafot etgan marxum **RAZIKOV TOLIBJAN KAMILJANOVICH,**

Xonobod shaxri, Teyt MFÝ, Zirоat kŭchasi, 52/A-uyda yashab, 2013 yil 17 iyul kuni vafot etgan marxum **KADIRALIYEVA XAJIRAXON ABDUVALIYEVNA**larnning meros mulklarига nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumlarnning merosxŭrlari va manfaatdor shaxsларni eълon chiqqan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Xonobod shaxri, Obod kŭchasi, 134-uyda jojlashgan xususiy amaliёt bilan shugullanuvchi notarius A.N.Zulunov notarial idorasiga,

Jalaqudug tumanidagi uyda yashab, 2016 yil 29 iyun kuni vafot etgan marxum **MAGZIMOV FARXODJON FAYZULLAYEVICH**ning meros mulklarига nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning merosxŭrlari va manfaatdor shaxslarni eълon chiqqan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Jalaqudug tumani, Ŭzbekiston kŭchasi, 57-uyda jojlashgan xususiy amaliёt bilan shugullanuvchi notarius Sh.Yu.Raximov notarial idorasiga,

Izboskan tumani, Yangi bŭstonobod MFÝ, Bogaro kŭchasidagi uyda yashab, 2011 yil 8 aprel kuni vafot etgan marxum **MAXMUDOVA FONIYA GABDULLIPOVNA**ning meros mulklarига nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumning merosxŭrlari va manfaatdor shaxslarni eълon chiqqan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Izboskan tumani, Naqshband kŭchasida jojlashgan xususiy amaliёt bilan shugullanuvchi notarius S.K.Botirov notarial idorasiga,

Paxtaobod tumanida yashab, 2024 yil 10 yanvar kuni vafot etgan marxum **IMINOV SANJAR NASRITDINOVICH,**

Paxtaobod tumanida yashab, 1983 yil 29 noyabr kuni vafot etgan marxum **ABDULLAEV ESONBOY**larnning meros mulklarига nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumlarnning merosxŭrlari va manfaatdor shaxsларni eълon chiqqan kundan boshlab, 1 (bir) oy muddat ichida tegishli xujjatlari bilan Paxtaobod tumani, Muazzinboy MFÝ, Oltin yŭl kŭchasida jojlashgan xususiy amaliёt bilan shugullanuvchi notarius X.A.Raxmonov notarial idorasiga,

Shaxrixon tumani, Qipchaqŭrgon MFÝda yashab, 2025 yil 4 mayda vafot etgan marxum **OTAKUZIEV OBIDJON TURSUNBOEVICH,**

Shaxrixon tumani, Sarой MFÝda yashab, 2003 yil 4 fevralda vafot etgan marxum **AKBAROV RAXMAT-JON**larnning meros mulklarига nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumlarnning merosxŭrlari va manfaatdor shaxsларni eълon chiqqan kundan boshlab, tegishli xujjatlari bilan Shaxrixon tumani, R.Ёdgorov kŭchasida jojlashgan xususiy amaliёt bilan shugullanuvchi notarius A.Axmadjonov notarial idorasiga,

Shaxrixon tumani, Navbaxor MFÝda yashab, 2012 yil 9 iyulda vafot etgan marxum **AXUNJANOV UZOQJON AXUNJANOVICH,**

Shaxrixon tumani, Ortish MFÝda yashab, 2018 yil 14 yanvarda vafot etgan marxum **ABDUKAYUMOV OKTAMJON**larnning meros mulklarига nisbatan meros ishi ochilaётganligi sababli marxumlarnning merosxŭrlari va manfaatdor shaxsларni eълon chiqqan kundan boshlab, tegishli xujjatlari bilan Shaxrixon tumani, R.Ёdgorov kŭchasida jojlashgan xususiy amaliёt bilan shugullanuvchi notarius A.Mamatov notarial idorasiga murojaat qilishlari sŭralади.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo'limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 7.11.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 7.11.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o'g'li